

KONVERGENT MUHITDA JANRLAR TRANSFORMATSIYASI

Sohiba Mullayeva*O‘zJOKU katta o‘qituvchisi**E-mail: sohibamullayeva@gmail.com**Tel: 97 700 43 75*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada an’anaviy janrlarning onlayn muhitga ko‘chishidagi o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Bu jarayon aynan poligrafik nashrning onlaynga moslashuvi kontekstida ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *konvergent tahririyat, janrlar transformatsiyasi, poligrafik nashr, onlayn nashr, internet.*

Ba’zi tadqiqotchilar janrlarning onlayn formatga moslashishini uch bosqichga ajratadi:

1. Internet paydo bo‘lishining dastlabki bosqichi. Bu davr moliyaviy, iqtisodiy, tijoriy saytlarning axborot berish janrlari samarali foydalangani bilan xarakterlanadi.

2. Tarmoqlarning rivojlanishi bosqichi. Bunda aholining internetga nisbatan qarashlari o‘zgaradi: ular virtual olamni ommaviy kommunikatsiya vositasi, axborot maydoni sifatida qabul qiladi. Bu esa onlayn nashrda turli mavzulardagi materiallar berilib, undan ochiq axborot manbai sifatida qaralishida yaqqol namoyon bo‘ladi.

3. Onlayn resurslarning boyish bosqichi. Ushbu bosqichda yirik axborot agentliklari, ma’lumotlar bazasi, internet resurslari, kutubxonalar, ijtimoiy tarmoqlarga asos solindi. Shundan so‘ng tarmoq nafaqat professionallar, balki o‘quvchi (tomoshabin, foydalanuvchi)ning ma’lumotlari bilan har daqiqada boyitib borildi⁸⁷. Zamonaviy janr turlari, vazifasi hamda formatining kengayib yoki o‘zgarib borishini ana shu uch xususiyat bilan izohlash mumkin.

Rossiyalik olim Anna Kachkayevaning fikricha, saytdagi kontent uchun nafaqat sarlavha va birinchi xatboshi, balki kalit so‘zlar va havolalar ham muhim sanaladi⁸⁸. Unga ko‘ra, onlayn kontentdagi multimediyaviy janrlar auditoriya tasnifi va xohish-istaklariga qarab rivojlanadi. To‘g‘ri, an’anaviy janrlar butunlay yo‘q bo‘lib ketmadi. Ammo bu jarayon ularning veb-resursdagi rivojiga biroz soya soldi.

⁸⁷ Ким. М., Пак Е. Жанры печатных и электронных СМИ. Учебник для вузов. СПб.: Питер, 2020. – С.18-448.

⁸⁸ Журналистика и конвергенция: почему и как традиционные СМИ превращаются в мультимедийные / под ред. А.Г. Качкаевой. – М.: 2010. – С.200.

Olimaning qarashlariga qisman qo‘shilish mumkin. Haqiqatan ham onlayn media auditoriya talabiga binoan faoliyat yuritishi kerak. Aytish mumkinki, yuzaga kelayotgan yangi veb-janr turlarining an’anaviy turlariga tahdidi ham yo‘q emas. Konvergent jurnalistikada axborotni yig‘ish, qayta ishlash va uzatishdagi qayta shakllantirish bosqichi ham bor. Bunda bir platforma uchun yaratilgan kontent boshqa biriga ko‘chirilganda, albatta, qayta shakllantirilishi kerakligi ta’kidlanadi. Buning natijasida janrlar integratsiyasi yoki transformatsiyasi yuzaga keladi.

Xususan, “Zarafshon” gazetasining 2022 yil 12 fevral 17-sonida e’lon qilingan “Hind davlatchiligi tarixida boburiylar sulolasining o‘z o‘rni bor”⁸⁹ sarlavhali maqola janr o‘zgarishi holatiga yaqqol misol bo‘la oladi. Eskicha qolipda, an’anaviy gazetachilikka xos sarlavha qo‘yilgan va an’anaviy shakldagi kirish bilan boshlangan ushbu maqola saytga mohirona joylashtirilgan. Eng avvalo, sarlavha internet auditoriyasi talablariga mos ravishda “Zahiriddin Muhammad Boburning ichkilikka qarshi farmoni”⁹⁰ tarzida o‘zgartirilgan. Qolaversa, hajm jihatidan deyarli uch barobarga qisqartirilgan. Gazetada umumiy ma’lumotlar tahlilga tortilgan bo‘lsa, onlayn nusxada shu kontent ichidan bittasi ajratib olinib, batafsil yoritilgan. YA’ni tahliliy maqola janridan axborot-xabar janriga o‘zgargan⁹¹. “1-jadvalga qarang”.

Gazetaning poligrafik ko‘rinishidan onlayn nusxaga o‘tishida janrlar transformatsiyasi 2020-yil (“Zarafshon” va www.zarnews.uz misolida)

Janr nomi	Onlayn kontentdagi o‘zgarishi	Bosma	Onlayn
Tahliliy maqola	Longrid	1,9 AQSH dollaridan kam mablag‘ga kun kechirayotganlar... 2020, 23, 06. 68-son	1,9 AQSH dollaridan kam mablag‘ga kun kechirayotganlar... 2020, 22, 06 https://zarnews.uz/k11
Tahliliy maqola	Multimediaviy storiytelling	Ehtiyojmand oilalarga ko‘mak berishda yangicha yondashuv “Zarafshon”,	Ehtiyojmand oilalarga ko‘mak berishda yangicha yondashuv

⁸⁹ “Zarafshon” gazetasi. 2022 yil 15 fevral. №12.

⁹⁰ <https://zarnews.uz/post/zahiriddin-muhammad-boburning-ichkilikka-qarshi-farmoni>. Murojaat sanasi: 26.02.2022.

⁹¹ <https://zarnews.uz/uz/post/behbudiy-aqsh-prezidenti-bilan-nega-uchrasholmagan>. Murojaat sanasi: 26.02.2022.

		2020, 20,06. 67-son	https://zarnews.uz/post/ehtiyojmand-oilalarga-komak-berishda-yangicha-yondashuv
Maqola	Xabar	Ehtiyojmand oilalarga ko‘mak berishda yangicha yondashuv “Zarafshon”, 2020, 20,06. 67-son	Ehtiyojmand oilalarga ko‘mak berishda yangicha yondashuv

1-jadval.

Gazetaning bosma nashrida chop etilgan ba’zi maqolalar onlayn kontentga ko‘chganida, hajman kengayish holatlarida ham janrlar integratsiyasi sodir bo‘ladi. Masalan, “Zarafshon” gazetasining 2022 yil 18 yanvar 6-sonida maqola janrida berilgan “Behbudiy AQSh prezidenti bilan nega uchrasholmagan?” sarlavhali material hajm jihatidan kengayishi hamda faktlar qo‘shilgani natijasida saytda ilmiy-ma’rifiy maqola turiga aylangan. Agar maqola multimediyaviy vositalar bilan boyitilganida hamda mavzuga yanada chuqurroq yondashilganida longrid janri talablariga mos kelar edi. “2-jadvalga qarang”.

Gazetaning poligrafik ko‘rinishidan onlayn nusxaga o‘tishida janrlar transformatsiyasi (2022 yil) (“Zarafshon” va www.zarnews.uz misolida)

Janr nomi	Onlayn kontentdagi o‘zgarishi	Bosma	Onlayn
Maqola	Maqola	SUBSIDIYA: murojaat nega rad etiladi? “Zarafshon” gazetasi 2022, 11-son	SUBSIDIYA: murojaat nega rad etiladi? SUBSIDIYA: murojaat nega rad etiladi? - zarnews.uz

Maqola	Axborot-xabar	Hind davlatchiligi tarixida boburiylar sulolasining o‘z o‘rni bor “Zarafshon” gazetasi 2022, 12-son	Zahiriddin Muhammad Boburning ichkilikka qarshi farmoni https://zarnews.uz/post/zahiriddin-muhammad-boburning-ichkilikka-qarshi-farmoni
Jurnalist surishtiruvi	Jurnalist surishtiruvi	Obod bo‘lmayotgan "Obod qishloq"lar. Ulardagi qurilishlar qachon bitadi? “Zarafshon” 2022, 18, 01.6-son	Obod bo‘lmayotgan "Obod qishloq"lar. Ulardagi qurilishlar qachon bitadi? https://zarnews.uz/post/obod-bolmayotgan-obod-qishloqlar-ulardagi-qurilishlar-qachon-bitadi
Maqola	ilmiy-ma’rifiy maqola	Behbudiy AQSH prezidenti bilan nega uchrasholmagan? 2022, 18, 01 6-son	Behbudiy AQSH prezidenti bilan nega uchrasholmagan? https://zarnews.uz/post/behbudiy-aqsh-prezidenti-bilan-nega-uchrasholmagan

2-jadval.

Zarafshon” gazetasining 2020 yil 23 iyun 68-sonida chop etilgan “Sudlarga “E-XSUD” axborot tizimi orqali murojaat qilish tartibi belgilandi” sarlavhali maqola xabar janrida matn+foto tarzida qisqa va lo‘nda tarzda berilgan. Mazkur material saytga ko‘chirilganda, janr transformatsiyasi yuz beradi. YA’ni xabar janridan longridga aylangan. To‘g‘ri, bu kontentni to‘laligicha longrid janriga mos deb bo‘lmaydi. Sababi, unda ushbu janrga mos multimediaviy vositalar yetarlicha emas. Lekin mavzuga chuqur kirilganligi, ifoda ravonligi hamda hajm jihatidan kattaligiga tayanib, uni longrid janriga kiritish maqsadga muvofiq, bizningcha.

Tahlil jarayonida bosma kontentda berilgan oddiy maqola onlayn nusxaga ko‘chganida, garchi mediamatn aynan keltirilsa-da, internet imkoniyatlaridan foydalanishga urinish

holatlari kuzatildi. Bu kabi hodisalarni raqamli matbuotning vizuallashuvi tarzida baholash mumkin. Sababi, onlayn nusxa ham gazeta sanalib, mediamatn bir xil, faqat axborot uzatish kanallari turli bo‘lgan nashr hisoblanadi. Fikrimizni “Zarafshon” gazetasining 2020 yil 18 iyun 66-sonida chop etilgan “Dyadya Slava”ning bolalar maydonchasi” sarlavhali maqola misolida asoslashga harakat qilamiz. Ushbu material www.zarnews.uz saytida 17 iyun kuni aynan shu sarlavha ostida e’lon qilingan⁹².

Bosma nashrda material maqola janrida ikkita fotosurat bilan matn+foto tarzida bosilgan bo‘lsa, onlayn nusxada fotolar soni va axborot uzatish vositalari ortadi. Natija matn+foto+audiomatn ko‘rinishida aks etadi. Maqolada koreys millatiga mansub qariyaning tashlandiq joyni bolalar maydonchasiga aylantirgani xususida so‘z boradi. Qahramon obrazi borligi, uning hayotiy qiyinchiliklari hamda atrofdegilarga qilgan ezgu ishlari aks ettirilganiga tayanib, maqolada transmediaviy ifoda unsurlari bor deb baholash hamda buni onlayn formatda multimedaviy vositalar bilan boyitilganiga asoslanib, storiytelling janriga aylangan, deyish mumkin. Albatta, maqolaning onlayn formati kamchiliklardan xoli emas. Masalan, multimedaviy vositalardan to‘liq foydalanilmagan: kontentga videomatn hamda taymlayni qo‘shib, yanada o‘qishli qilish mumkin edi. Ammo audiomatnning qo‘shilganligi videokontent yo‘qligini u qadar sezdirmaydi. Qahramonning bosib o‘tgan umr yo‘li xronologik tarzda infografikaning taymlayn turiga solib taqdim etilganida, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bundan tashqari, onlayn nusxada bayonni yanada kuchaytirish, maqola hajmini oshirish mumkin edi.

E.Pakning qayd etishicha, gazetaning onlayn analogini yaratishda internet muhiti va uning ko‘pfunksiyaviyligini hisobga olish zarur⁹³. Uning fikriga qo‘shimcha tarzda aytish mumkinki, internet janrlarining transformatsiyasi an’anaviy jurnalistika janrlari taqdiriga ham tegishli. “Zarafshon” gazetasi faoliyati tahlilida uchragan xabar+tahlil+multimedaviy vositalar=longrid, tahliliy maqola+foto+video+hikoya qilish=multimedaviy storiytelling tarzida gibrid janrlar yaralayotgani fikrimizni isbotlaydi. Bu tahririyat xodimlarining konvergent jurnalistika tomon qo‘yayotgan dastlabki qadamlaridir.

Ammo “Farg‘ona haqiqati” tahririyati haqida bunday deyishga biroz erta. Sababi, olib borgan tahlillarimiz natijasi shuni ko‘rsatdiki, nashrning onlayn nusxasiga joylangan kontentning aksariyatida sarlavhadan tortib, uning janr va formatigacha biror qismi o‘zgarmagan. 2020 yilda onlayn kontentni shakllantirishda janrlar transformatsiyasi oz bo‘lsa-da, ko‘zga tashlanadi. Bu o‘sha davrda saytni shakllantirishda asosan gazeta

⁹² «Дядя Слава»нинг болалар майдончаси - zarnews.uz. Murojaat sanasi: 25.03.2022.

⁹³ Пак Е. Жанрообразование в сетевых сми: технологические и творческие факторы. Диссер.канд. филол.наук. – С.: 2014. – С.158.

materiallariga tayanilgani natijasidir. Chunki 2021-2022 yilning birinchi choragi kuzatilganida saytga gazetadan 2-3 ta material olingani qayd etildi. Qiziq bir holat, onlayn analog uchun kam material olinsa-da, janr transformatsiyasi deyarli uchramaydi. Bu bosmada e’lon qilingan material qayta shakllantirilmasdan, ishlov berilmasdan saytga joylangan, jurnalistlarning konvergentlik mahorati ko‘zga tashlanmaydi deganidir.

Rossiyalik olim A.Gradyushko raqamli medianing janrlar rang-barangligi haqida so‘z yuritib, quyidagi tendensiyalarni sanab o‘tadi:

- 1) janrlarning qo‘shilishi va transformatsiyasi;
- 2) materialni taqdim etishda yangi multimedia shakllarining paydo bo‘lishi;
- 3) axborotga yo‘naltirilgan janrlarning keng tarqalishi;
- 4) badiiy-publitsistik janrlarning yetishmasligi;
- 5) muallif pozitsiyasini ifodalashga imkon beruvchi janrlarning mashhurligi⁹⁴.

Uning fikricha, nafaqat veb, balki an’anaviy janrlar ham texnologik va ijodiy omillar ta’sirida rivojlangan. Vebga asoslangan yangi janrlar an’anaviy janrlarga yangi shakl va funksiyalarni bermoqda, aslida janrlar tub o‘zagini yo‘qotmagan.

Aslida ham shunday. Garchi yangi mediada yondashuvlar, axborot uzatish usullari, shakllari va vositalari o‘zgarib ketgan bo‘lsa-da, uning asosini an’anaviy jurnalistika tashkil etadi. Shundan kelib chiqib, bosma nashrlar internetni murakkab jarayon deb emas, balki axborot hajmi va mazmunini kengaytirish hamda o‘z o‘quvchilari bilan kommunikativ aloqalarni o‘rnatishda ulkan bir vosita⁹⁵ sifatida qarash kerak. Konvergent kontent yaratishda janrlar transformatsiyasiga ham shu prinsip asosida qarash zarur, bizningcha. Bunda gipermatn, interaktivlik yoki multimediamiylikni qo‘shish va shu asnoda janrlarni boyitish maqsadga muvofiq.

Tahlilga tortilgan ikkala tahririyat faoliyatidan ko‘rish mumkinki, O‘zbekistondagi hududiy tahririyatlarda konvergent kontent yaratish borasida kamchiliklar yetarli darajada. Xususan, hududiy konvergent tahririyatlarda janrlar integratsiyasi va transformatsiyasi juda sust. Gazetada ham, saytda ham klassik janrlar ustunlik qiladi. Lekin raqamlashayotgan muhitda an’anaviy jurnalistika janrlari o‘rnini sintetik va gibrid janrlar egallayotgani ham ayni haqiqat.

Shu o‘rinda konvergent jurnalistning mahorati janrlarni qay darajada “moslashtira olishi”, multimedia vositalaridan mohirona va o‘z o‘rnida foydalanishi, bir so‘z bilan aytganda,

⁹⁴ Градюшко А. Основы творческой деятельности веб-журналиста: учеб.- метод. пособие. – Минск: БГУ, 2019. – С.68

⁹⁵ Пак Е. Жанрообразование в сетевых СМИ: технологические и творческие факторы. Диссер.канд. филол.наук. – С.:2014. – С.16

to‘plagan va qayta ishlagan materialini yangi axborot va kommunikatsion texnologiyalar asosida aks ettirishi muhim.

Xulosa shuki, konvergent tahririyatda yaratilgan har qanday janrdagi matn saytga ko‘chirilganida, gazetaning shunchaki elektron shakli bo‘lib qolmasligi, balki integratsiya yoki transformatsiya jarayonidan o‘tgan yangi janr dunyoga kelishi va u konvergent kontentga aylanishi zarur. Bosma nashrning mediakonvergensiya sharoitiga moslashuvi deganda, aynan shu jihatlar nazarda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ким. М., Пак Е. Жанры печатных и электронных СМИ. Учебник для вузов. СПб.: Питер, 2020. – С.18-448.
2. Журналистика и конвергенция: почему и как традиционные СМИ превращаются в мультимедийные / под ред. А.Г. Качкаевой. – М.: 2010. – С.200.
3. Пак Е. Жанрообразование в сетевых сми: технологические и творческие факторы. Диссер.канд. филол.наук. – С.: 2014. – С.158.
4. Градюшко А. Основы творческой деятельности веб-журналиста: учеб.- метод. пособие. – Минск: БГУ, 2019. – С.68.
5. Пак Е. Жанрообразование в сетевых СМИ: технологические и творческие факторы. Диссер.канд. филол.наук. – С.:2014. – С.16.